

**ARAB VA INGLIZ TILLARINING GRAMMATIK JIHATDAN
UMUMIYLIKHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Rahmonova Umidaxon Xursanali qizi
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Sharq filologiyasi fakulteti
Arab tili yo'naliishi 1-bosqich talabasi
rahmonovaumidaxon54@gmail.com
Umurzakova Oygu Umurovna
Ilmiy rahbar: O'zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi
va amaliyoti kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab tilidan ingliz tiliga o'zlashgan so'zlar hamda arab va ingliz tillarining grammatik jihatdan o'xshashliklari va farqli jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ikki tilning tuzilishi, sintaksisi va morfologiyasi o'rtaqidagi umumiyliliklar hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Ushbu maqola arab va ingliz tillarini o'rganayotgan talabalar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Kalit so'zlar va iboralar: arab tili, ingliz tili, arab tilidan o'zlashgan so'zlar, grammatika, sintaksis, morfologiya, o'xshashlik, farqlilik.

Аннотация. В данной статье анализируются заимствованные из арабского языка слова в английском языке, а также грамматические сходства и различия между арабским и английским языками. Результаты исследования направлены на выявление общих черт и уникальных особенностей структуры, синтаксиса и морфологии двух языков. Эта статья может быть полезной для студентов, изучающих арабский и английский языки.

Ключевые слова и фразы: арабский язык, английский язык, заимствованные из арабского слова, грамматика, синтаксис, морфология, сходства, различия.

Annotation. This article analyzes words borrowed from Arabic into English, as well as the grammatical similarities and differences between Arabic and English. The study aims to identify the commonalities and unique features of the structure, syntax, and morphology of the two languages. This article may be useful for students studying Arabic and English.

Keywords and phrases: Arabic language, English language, words borrowed from Arabic, grammar, syntax, morphology, similarities, differences.

KIRISH

Inson yaralibdiki muloqot qilishga ehtiyoj sezadi shuning uchun ham til hayotimizning eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan jabhasidir. Bugungi kunda yer yuzida 5 mingdan ziyod tillar mavjud bo'lib ularning barchasi ham o'z davlatiga ya'ni rasmiy hisoblangan hududiga ega emas. Ammo ikki til borki qamrov doirasi juda keng ekanligini ko'rishimiz mumkin. Ular arab tili va ingliz tillaridir. Bugungi kunda arab tili 25 ta davlatda rasmiy til sifatida tan olingan bo'lib, ulardan oltitasida arab tili eng

ko‘p foydalaniladigan til hisoblanadi. Ma’lumotlarga qaraganda, dunyo aholisining yarim milliardga yaqini arab tilida so‘zlashadi. O‘z navbatida arab tili dunyoda ko‘p so‘zlashiladigan tillar ichida beshinchi o‘rinni egallaydi.

Ingliz tili rasmiy til hisoblangan davlatlar soni 23 tani tashkil etadi (Buyuk Britaniya, Shimoliy Irlandiya, AQSH, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Kanada, Irlandiya, Hindiston va 15 ta Afrika davlatlari). 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra Yer yuzida ushbu tilda so‘zlashuvchilar soni 1,5 milliarddan ortiq kishini tashkil qilgan. Dunyodagi eng ko‘p ishlataladigan tillar ichida uchinchi o‘rinda turadi (ispan hamda mandarin ya’ni xitoy tillaridan keyin). Bundan tashqari ingliz tili Birlashgan millatlar tashkilotining rasmiy ish yuritish tili hisoblanadi.

Ko‘rinib turibdiki har ikki til foydalanish doirasi keng bo‘lgan tillardan. Har bir til o‘ziga xos grammatik qoidalar va tizimga ega. Arab va ingliz tillari dunyoning turli tillar oilasiga mansub bo‘lsa-da, ularning ba’zi jihatlari bir-biriga yaqin, ba’zilari esa tubdan farq qiladi. Ushbu maqolaning maqsadi arab va ingliz tillarining grammatik tuzilishini o‘rganish, ularning o‘xshashlik va farqlarini tahlil qilishdir. Bu ilmiy izlanish tilshunoslik va chet tillarini o‘rganish metodologiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

Arab tili somiy tillar oilasiga mansub bo‘lib, uning adabiy til me’yorlari johiliyat davrida shakllangan. Uning grammatik qoidalari esa milodiy VIII-IX asrlarda ishlab chiqildi. Uning bugungi holatga kelishida Xalil al – Farohidi, Amir bin Usmon Sibavayxiy kabi tilshunos olimlar qatori bobolarimizdan Mahmud Zamaxshariyning ham xizmatlari katta. Bir tomondan musulmon dunyosining muqaddas diniy kitobi bo‘lgan «Qur’on»ni tushunarli qilish, undagi so‘zlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilish, ikkinchi tomondan, klassik arab tilini shevalar ta’siridan saqlash maqsadida arab olimlari til masalalari bilan jiddiy shug‘ullanishga kirishdilar. VIII asrda arablar xalifaligi hokimiyatni egallagashi natijasida va IX-XII asrlarda Bag‘dodda ilm tili sifatida foydalanib bir qancha ilmiy me’roslar yaratilganligi sabab yurtimiz hududida keng tarqalgan.

Ingliz tili qadimgi german qabilalari (ingliz, saks va yut)ning tillaridan kelib chiqqan. Ingliz tili Angliyaning Anglo-Sakson qirolliklari hamda hozirgi janubiy-sharqi Shotlandiya yerlari avvalgi Norzumbriya qirolligida vujudga keldi. Tarixiy manbaalarga ko‘ra, eski ingliz tili juda ko‘plab shevalar turkumini o‘z ichiga oladi. “English” (ingliz) so‘zi “Angles” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bu xalqning ajododlar yurti Angeln hozirgi Schleswig-Holstein bo‘lgan. Ingliz so‘zlarining ko‘philigi lotin tilidan olingan. Shu bilan birga ingliz tili tarkibida arab tili so‘zlarini ham uchratishimiz mumkin.

O‘lkamizda ruslar hukmronligi o‘rnatilgunga qadar arab tilidan keng foydalanilganligi sabab o‘zbek tili tarkibiga ham ko‘plab arobiy so‘zlar singib ketgan. Bundan tashqari barcha musulmon davlatlar qatori O‘zbekistonda diniy udum va urf-odatlarni bajarishda arab tiliga murojaat qiliamiz. Ammo tilimizdagagi oddiy kundalik muloqotdagi so‘zlar ham arab tilidan kirib kelganligini ko‘philik bilmaydi.

Arab tilidan kirib kelgan inglizcha so‘zlar:

Arab	Ingliz	O‘zbek
سُكَر	Sugar	Shakar
سلطة	Salad	Salat
أَرْض	Earth	Yer
قطن	Cotton	Paxta
الجِبْر	Algebra	Algebra
ياسمين	Jasmin	Yasmin
سفر	Safari	Safar
صَكُ أو شِيك	Check	Chek
الْكَحْوَل	Alcohol	Alkagol
صُودَا	Soda	Soda
الليمون	Lemon	Limon
الزَّرْفَة	Giraffe	Jirafa
الشَّرَاب	Syrup	Ichimlik
الْقَهْوَة	Coffee	Qahva
الْكِيمِياء	Alchemy	Kimyo
مَسْجِد	Mosque	Masjid

Ingliz tilidagi araboy so‘zlar bilan qisqacha tanishish jarayonida shuni guvohi bo‘lamizki, ko‘plab o‘zbek tilidagi so‘zlar ham arab tilidan olingan va odatda bu so‘zlar turk tilidagi so‘zlarga ham tog‘ri keladi.

Ingliz tili bilan arab tilidagi ya’na bir ajoyib o‘xshashlik jins kategoriyasidir. Ya’ni ingliz tilidagi kishilik olmoshlarda arab tilida bo‘lgani kabi jisn kategoriyasi mavjud. Ammo arab tilida mutloq barcha so‘zlar ikki jinsiga bo‘linadi “muzakkar m/z” erkak jins va “muannas m/n” ayol jins. Bu jihat ingliz tilidan ham ko‘proq rus tilidagi "мужской род" va "женский род" ga o‘xshaydi. Arab tilida ham ingliz tilida ham birinchi shaxsdagi kishilik olmoshlari jins talab qilmaydi. Masalan:

“we-نحن-biz” va “I-أنا-men” tarzida.

Ushbu olmoshlarni qiz bola uchun ham o‘g‘il bola uchun ham birdek ishlatish mumkin.

Ikkinci shaxsda esa tubdan farq qilishini ko‘ramiz. Ingliz tilida ikkinchi shaxsni birlikda ham ko‘plikda ham faqatgina “you” orqali ifodalarak, arab tilida birgina siz so‘zi holatga qarab turlicha ifodalanadi. Masalan:

“Sen m/z-أنت-you”
 “Sen m/n-أنتـ-you”
 “Siz ikkingiz ” أنتما
 “Sizlar m/z-you-أنتم-you”
 “Sizlar m/n-أنتنـ-you”.

Shu o‘rinda bir qoidani garchi bu ikki til o‘rtasida farq qilmasa-da keltirib o‘tamiz. Ya’ni agar sizlar so‘zi arab tilida ko‘pchilikka qaratilgan bo‘lsa va bu ko‘pchilik ayollar va bittagina erkak kishidan tashkil topgan bo‘lsa ham muzakkar shakli qo‘llaniladi. Bu qoida uchinchi shaxs kishilik olmoshlari uchun ham tegishlidir. Uchinchi shaxs kishilik olmoshlaridagi o‘xshashliklar birlikda

“U m/z- ۋە-He” “U m/n-ھى-She” ning qo‘llanishi.

Farqlari “It”-jonsiz narsalar uchun, “u” – ۋە tarzida qo‘llaniladi.

Ingliz tilida ikkilik son kategoriyasi yo‘qligi sabab ikkinchi shaxsda ham uchinchi shaxsda ham alohida kishilik olmoshiga ega emas. Aksincha ko‘plikni ifodalovchi olmoshdan foydalaniladi xuddi o‘zbek tili singari.

“U ikkisi m/z va m/n-ھما-They”.

Ko‘plikda ham ingliz tilida jins kategoriyasi yo‘qligi sabab ham muannasda ham muzakkarda “They” olmoshi ishlatiladi.

“Ular m/z-مە-They”

“Ular m/n-ھەن-They”.

1. Arab va ingliz tillarining o‘xshashliklari

• Sintaksis jihatidan: har ikkala til ham gap tuzishda asosiy subyekt, predikat va to‘ldiruvchi tuzilmalariga asoslanadi.

• Morfologik jihatdan: ba’zi bir so‘z yasovchi affikslar (masalan, zamon shakllarida) umumiyliliklarga ega.

• So‘z tartibi: ko‘plab hollarda arab va ingliz tillarida so‘z tartibi (SVO - subyekt, fe’l, obyekt) mos keladi.

2. Arab va ingliz tillarining farqli jihatlari

• Morfologiya: arab tilida so‘zlar asosan ildiz va vaznlar tizimiga asoslangan bo‘lsa, ingliz tilida prefiks va suffiks qo‘llaniladi.

• Zamon shakllari: ingliz tilida 12 ta zamon shakli mavjud, arab tilida esa zamon shakllari oddiyroq, lekin mantiqiy murakkabliklarga ega.

• Jins va son kategoriyalari: arab tilida barcha ot va fe’llar jins va son bilan farqlanadi, ingliz tilida esa bu faqat cheklangan hollarda kuzatiladi.

XULOSA

Arab tili va ingliz tili o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar haqida gapiradigan bo‘lsak juda katta mavzu bo‘lishi tabiiy. Ularning harf tizimizdagи farqning o‘zi ham taqqoslash qanchalar murakkab ish ekanligining isboti bo‘la oladi.

Arab tili ingliz tili leksikasiga sezilarli ta’sir ko ‘rsatgan. Ushbu o ‘zlashmalar nafaqat tarixiy aloqalarni aks ettiradi, balki tillararo boylikni ham namoyish etadi.

Arab va ingliz tillarining grammatick o‘xshashlik va farqlari ularning til oilasi va madaniyati bilan bog‘liq. Arab tili ko‘proq sintetik tuzilishga ega bo‘lib, morfologik murakkablikka ega, ingliz tili esa analitik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu o‘xshashlik va farqlarni tushunish arab va ingliz tillarini samarali o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibrohimov N., Yusupov M. Arab tili grammatikasi. Darslik. Toshkent, 2024.
2. Crystal, D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. Cambridge University Press, 2010.
3. Swan, M., & Smith, B. Learner English: A Teacher’s Guide to Interference and Other Problems. Cambridge University Press, 2001.
4. Versteegh, K. The Arabic Language. Edinburgh University Press, 2001.

5. Wright, W. A Grammar of the Arabic Language. Cambridge University Press, 2011.